

## OLIY TA'LIM BITIRUVCHILARINING DUNYO MEHNAT BOZORIDAN XABARDORLIGINI OSHIRISHNING SAMARADORLIGI.

BUXDPI Akademik litseyi direktori

**Rajabov Qahramon Qurbonovich**

Telefon: +998 (97) 304-14-41

Email: [qahramonrajabov1984@gmail.com](mailto:qahramonrajabov1984@gmail.com)

**Anotatsiya:** Kasbiy faoliyat sohasini tanlash to'g'risidagi savolga har uchinchi bitiruvchi kelajakdagi ishi tadbirkorlik bilan bog'liq bo'lishini istashini bildiradi, bu esa talabalarda ishbilarmonlikka ishtiyoqning keng tarqalganini bildiradi. Boshqa talabalar qismi xizmat ko'rsatish sohasida, ishlab chiqarishda, davlat xizmatida, ta'lim va fan sohasida ishlashni rejalashtirganini ta'kidlaydi. Ushbu maqolamizda „Oliy ta'lim bitiruvchilarining mehnat bozoridan xabardorligi va ishga joylashishi“ haqida so'z boradi.

**Kalit so'z:** Mehnat bozori, tadbirkorlik, iqtisodiyot, raqobatbardosh bitiruvchilar.

Kasbiy faoliyat sohasini tanlash to'g'risidagi savolga har uchinchi bitiruvchi kelajakdagi ishi tadbirkorlik bilan bog'liq bo'lishini istashini bildiradi, bu esa talabalarda ishbilarmonlikka ishtiyoqning keng tarqalganini bildiradi. Boshqa talabalar qismi xizmat ko'rsatish sohasida, ishlab chiqarishda, davlat xizmatida, ta'lim va fan sohasida ishlashni rejalashtirganini ta'kidlaydi. Bitiruvchilarning katta qismi (57%) agar ishga oson joylashish masalasida muammo bo'lmasa, o'z ixtisosligi bo'yicha mehnat qilish niyati mavjudligini va o'z mutaxassisligini raqobatbardosh, martabaga erishish va yuqori maosh olishga imkon beradigan kasb ekanini e'tirof qildi. Bu esa, ularning tanlangan kasbidan qoniqish hosil qilayotganini bildiradi. Bitiruvchilarning uchinchi qismi (29%)ni mutaxassisligi bo'yicha ishlashni rejalashtirmayapti, ular mehnat faoliyatining ehtimoliy ko'rinishlari, masalan, yaxshi daromadli ish bilan ijtimoiy ahamiyati katta, lekin nisbatan kam daromadli ishdan birini tanlash jarayonini boshidan kechirmoqda, deb taxmin qilish mumkin. Qolgan – 14%i - javob berishda qiynaldi, ya'ni ular sharoitga qarab harakat qilishadi.

Aksariyat bitiruvchilar (85%) mehnat bozorida mutaxassisligi bo'yicha talab mavjud deb hisoblaydi, 7%i - o'z mutaxassisligini talabgir emas deb biladi, 8%i - javob berishda qiynaldi.

Ish qidirish yo'llari to'g'risidagi savollarga javob berarkan, bitiruvchilar, birinchi navbatda qarindoshlar, do'stlar va tanishlarining yordamiga tayanishlarini bildirishdi

(33%). Ish izlashning boshqa usullari, ularning nazarida, kam samaralidir. OAVdagi e'lonlar orqali ish qidirish masalasini 19% bitiruvchi yoqladi, kadrlar agentligi yordamiga umid qilayotganlar 21%, internetdan foydalanib ishga kirmoqchi bo'lganlar 11%, OTMning ishga joylashtirishda ko'maklashuvchi markazi xizmatidan foydalanmoqchi bo'lgan 12% respondentni tashkil qildi, qolganlar (4%) ish izlash usullarini bilmasligini ta'kidlagan.

OTMni tugatganidan so'ng 32% respondent bo'sh ish o'rinlari to'g'risida ma'lumot olish uchun faqatgina bir manbadan, 39%i - 2, 6%i - 3, 11%i - 4 manbadan foydalanishini bildirdi. Faqatgina 9% respondent bo'sh ish o'rinlari haqida ma'lumot olish uchun mavjud usullarning hammasini qo'llashini aytgan.

Bitiruvchi kurs talabalarining kattagina qismi (37%) o'zining ixtisosligi bo'yicha ish tajribasiga ega, deb hisoblaydi. Bu ijobiy holat hisoblanib, bu ularga raqobatda ustunlik beradi; 30% o'qishdan bo'sh paytida qo'shimcha bandlik sohasida ishlab tajriba orttirgan. Har uchinchi bitiruvchi (33%) mehnat bozoriga chiqishni o'qishni tugatgandan keyingi davrga qoldirgan. Amaliy tayyorgarlik ko'nikmasi, ish tajribasiga ega bo'lmagan bitiruvchilar ishga joylashishning qoniqarli shartlariga rozi bo'lishadi yoki ijtimoiy kapitaldan (do'stlar, qarindoshlar) yordam kutishadi.

Har beshinchi bitiruvchi (21%) ta'limning so'nggi bosqichida mutaxassisligi bo'yicha o'qish va ishlashni birga olib boradi, taxminan shunchasi (19%) o'qishdan tashqari ixtisosligiga daxli bo'lmagan sohada mehnat qiladi. Ham o'qish, ham ishlash ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, balki shuning uchun bitiruvchi bosqich talabalarining aksariyati (60%i) umuman ishlamaydi.

Mehnat faoliyatining ehtimoliy turlaridan birini tanlashda qo'yiladigan maqsadlar tahlili oylik maosh me'yori va "karyera qilish" imkoniyati birinchi o'rinda turishini ma'lum qildi, bu sifatlarning moddiy turmush farovonligini qisqa muddatda ta'minlashga qodir ekani e'tirof etildi. Kasbga moyillik, mehnat sharoitlari, korxonada obro'si kamroq ahamiyatga egaligi aniqlandi.


OTM bitiruvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar ularning ish o'rniga nisbatan talablari (maqsadlari) quyidagi tartibda joylashganini ko'rsatdi: ish haqi darajasi – 1-o'rin; karyera qilish imkoniyati – 2-o'rin; mutaxassisligi bo'yicha ishlash, qiziqarli kasb – 3-o'rin; obro'-e'tibor – 4-o'rin; mehnat sharoiti (qulaylik) - 5-o'rin

Bitiruvchining raqobatbardoshligi OTMda o'qish jarayonida shakllanadi va rivojlanadi, ishga joylashish va moslashish asnosida raqobatbardoshlikni ro'yobga chiqarish imkoniyatiga ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, undan boshqa faoliyat turlari, masalan, uy xo'jaligini yuritish, farzandlarni tarbiyalashda foydalanish mumkin. Shu

sababli biz bitiruvchining ishga joylashish yoki boshqa faoliyati turlari bilan shug‘ullanayotganda raqobatbardoshlikni namoyon qilish talablariga javob beradigan xatti-harakatlari to‘g‘risida so‘z yuritamiz. Ishga joylashish va mehnat faoliyatiga moslashish “shaxsning muhitning turli ta’sirlariga tegishli ravishda munosabat bildirish va harakat qilishga tayyorligi”ni nazarda tutadi. OTMning bitiruvchilarda muayyan malaka va xulq-atvorni shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan faoliyati, birinchidan, ishga joylashish jarayonidagi psixologik tabiatga ega muammolarni bartaraf qiladi, ikkinchidan, ish izlash muddatini qisqartiradi va umuman olganda, ishga joylashish samaradorligini oshiradi. Shu nuqtayi nazardan, biz tomonimizdan oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari raqobatbardoshligini ularning ishga joylashish jarayonida ro‘yobga chiqarishning to‘rt bosqichli modeli ishlab chiqildi.

Kasbiy tayyorgarligini namoyish qilish jarayonida bitiruvchi raqobatchiga xos xatti-harakatlarni amalga oshiradi va ularni to‘rt bosqichdan iborat shaklda tasavvur qilish mumkin. Shaxsning mehnat bozoridagi iqtisodiy harakati subyektlarning mehnat bozoridagi o‘z mavqeiga nisbatan tanlovidan boshlanadi. Bitiruvchi tomonidan ishga joylashish uchun o‘rin qidirish yoki boshqa faoliyati turi bilan shug‘ullanish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi.

Ikkinchi bosqich. Mehnat faoliyatining ehtimoliy variantlari belgilanadi va aniqlashtiriladi. Bu variantlar shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy holati (moddiy, ash-yoviy va tashkiliy-iqtisodiy sharoitlar) va boshqa subyektlarning qiziqishiga obyektiv darajada bog‘liq bo‘lib, ularni o‘z manfaatlarini shu jarayondagi boshqa subyektlar ehtiyojlari bilan kelishtirish orqali belgilash va aniqlashtirish mumkin. Subyekt tomonidan uning holatini yaxshilaydigan yoki yomonlashtiradigan, maosh nuqtayi nazaridan qiziqish va ehtiyojlarini qondiradigan, karyera qilish, hamkasblar bilan suhbatlar uyushtirishga, qiziqarli ish o‘rni va obro‘-etibor va hokazolarga erishishga imkon beradigan mehnat faoliyatining ehtimoliy yo‘nalishlari aniqlashtiriladi.



### **OTM bitiruvchilari raqobatbardoshligini ro'yobga chiqarish bosqichlari**

Uchinchi bosqich. Mehnat qilish sohalari yanada aniq belgilanadi. Tanlov asosida shaxsiy-subyektiv me'yorlar (maqsadlar) yotadi, ularni ehtiyojlarni qondirishning yuksak ko'rinishi sifatida ta'riflash odat tusiga kirgan. Shaxs ularga tayanib, o'z xatti-harakatlarini izohlaydi va asoslaydi, xususi qiziqishlari bilan shu jarayonda qatnashayotgan boshqa subyektlarning manfaatlarini o'zaro kelishtiradi, qiyoslash va tanlash orqali keyingi harakatlar yo'nalishini belgilaydi.

OTM bitiruvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar ularning ish o'rniga nisbatan talablari (maqsadlari) quyidagi tartibda joylashganini ko'rsatdi:

ish haqi darajasi – 1-o'rin;

karyera qilish imkoniyati – 2-o'rin;

mutaxassisligi bo'yicha ishlash, qiziqarli kasb – 3-o'rin;

obro'-e'tibor – 4-o'rin;

mehnat sharoiti (qulaylik) - 5-o'rin

To‘rtinchi bosqich. Bitiruvchining ish beruvchi bilan suhbat, saralash tadbirlari va ishga qabul qilish to‘g‘risida qaror qabul qilish-ishga kirish jarayonining so‘nggi bosqichidir.

Bu bosqichda bitiruvchining mehnat sharoitiga nisbatan talablari va ish beruvchining xodim kasbiy malakasi va boshqa muhim sifatlariga nisbatan istaklari o‘zaro kelishiladi. Shuning uchun bitiruvchi o‘zining boshqa nomzodlardan afzal raqobat xususiyatlarini namoyon qilish va isbotlashni bilishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 05.06.2018-yildagi PQ-3775-son. Kuchga kirish sanasi 06.06.2018
2. Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish choratadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 11.07.2019-yildagi PQ-4391-son.
3. “Oliy ta‘lim: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani, ilmiy maqola va tezislari to‘plami. 2020-yil 25-may. –310 b.
4. Болонская декларация “О Европейском регионе высшего образования”. г.Болонья, Италия. 1999.
5. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kreditmodul tizimida tashkil qilish. – Toshkent, 2020.
6. Mustafaqulov Sh., Sultonov M. Kredit-modul tizimiga o‘tish nima uchun kerak? Maqsad, mohiyat va afzallik. [http:// xs.uz/uzkr/post/ kredit-modul-tizimiga-otish-nimauchun-kerak-maqsad-mohiyat-va-afzallik](http://xs.uz/uzkr/post/kredit-modul-tizimiga-otish-nimauchun-kerak-maqsad-mohiyat-va-afzallik).